

ёшларда миллий мусиқа меросимизга барқарор қизиқиш, кадрлаш, ўрганиш ва назарий ҳамда зарур билим, кўникма ва малакаларни эгаллашларига имконият яратади.

### Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент.: - Ўзбекистон, 2000. 43-бет.
2. И.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч – Тошкент.: -Маънавият, 2008. 43-бет.
3. Умумий ўрта таълимнинг мусиқа таълими ва тарбияси Концепсияси. Тошкент, - ХТВ, 1995 йил.
4. Қудратов И. Талабаларни халқ кўшиқлари воситасида эстетик тарбияларлаш. – Тошкент,- Фан, 2009 й.
5. N. Hasnova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. Aktualnyy vyzovy sovremennoy nauki IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
6. Hasanova, navbahor. (2020). Methods And Ways To Develop The Musical Feelings Of Students In TTTE Lessons Of Music Euiture. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/5579](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579)

*N. Hasanova*

*Jizzax Davlat pedagogika institute*

*“Vokal va cholg’u ijrochiligi” kafedrasi katta o’qituvchisi.*

*H. Tojiqulova*

*Musiqa ta’limi yo’nalishi 4- bosqich talabasi*

### ADABIYOT- BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MUHIM OMILI.

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2017-yilning 19-sentyabrida BMT minbariga chiqib so’zlagan nutqida ham aynan yoshlar masalasi, yosh avlod tarbiyasi eng dolzarb muammolardan ekanligi aytib o’tilgan edi.... , odamlar birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo’llab –quvvatlash , ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko’p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblayman degan edilar.

Millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb masala bo’lib kelgan. Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelganlar. “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo’lgan hindlarning “Panchatatra” (Besh hikmat), “To’tinoma” shuhrat qozongan “Shukasaptati” (To’tining yetmish hikoyasi), Yusuf Xos Xojibning “Qutatg’u bilig” (Baxt saodatga yo’llovchi bilim), Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” va “Bo’ston”, Nosiriddin Rag’buziyning “Qissasi Rag’buziy”, ALisher Navoiyning “Maxbub ul qulub” (Ko’ngillarnin sevgani), “Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi o’nlab durdona asarlari ko’p asrlar davomida farzandlar tarbiyasida dasturulamal vazifani o’tab kelmoqda.

Bu asarlar necha-necha avlodga vatanparvarlik, poklik, rostgo’ylik, mehnatsevarlik kabi ko’plab insoniy fazilatlarni singdirib kelayotgani sir emas. Mana shunday tarbiyaviy jihatdan qimmatli asarlar orasida Unsurulmaoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari Sharq xalqlari orasida ma’lim va mashhurdir. Bu asar 1860 yilda o’zbek tiliga birinchi marta buyuk o’zbek shoiri va

mutaffakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilindi. Asar 44- bobdan iborat bo'lib, barcha boblar inson tarbiyasiga oid pand- nasihat va hikoyatlardan tashkil topgandir.

Bizga ma'lumki, sharq xalqlarida milliy an'ana, urf-odat, udum va hatto turmush tarzlarida bir- biriga yaqinlik, o'xshashlik, qadriyat sirli umumiylik mavjud. Mana shu jihatlar G'arb xalqlaridan farqli, o'laroq Sharq xalqlarida o'ziga xos fazilatlar paydo qilganki, bunda biz yuqorida nomlarini qayd etgan tarbiyaviy asarlarning alohida o'rni bor deb o'ylaymiz.

Ma'lumki Sharq xalqlari hayotida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, mehmonnavozlik, sahovatpeshalik kabi fazilatlar g'arb xalqlaridan tubdan farq qiladi. Bu borado o'zbek xalqi ham boshqalarga ibrat bo'larli fazilatlariga ega. Masalan er-xotin o'rtasidagi nikohni har ikkala jins vakili tomonidan muqaddas deb bilishi va uni umr bo'yi saqlab qolishga bo'lgan intilishi, shuningdek ota- onalar tomonidan farzandlarga ko'rsatilayotgan mehr, ularni ulg'aytirib jamiyatga foydali shaxs etib, tarbiyalashga bo'lgan intilish, farzandlarning ota- onalarga bo'lgan g'amxo'rliqi, ularning keksaygan, kuchdan qolgan yoki kasalmand bo'lganlarida parvarishlashga bo'lgan intilishlari mana shu sharqona tarbiya maxsuli bo'lib, uni har bir ota-ona yoki farzand maxsus buyruq yoki ko'rsatma orqali emas, balki o'z xoxishi bilan vijdonan bajarishi umumsharqona tarbiya mahsulidir.

Bu borada diniy ta'lim – tarbiyaning ham munosib o'rni bo'lib, "Qur'oni Karim" va "Hadisi Sharif"larda bayon qilingan ibratli kalimalar va ularning ma'nosini to'g'ri talqin etishning muhim ahamiyati bor.

J. To'lanov o'zining "Qadiryatlar falsafasi" kitobida "Jamiyat taraqqiyoti quyi bosqichlardan yuqori bosqichga, o'tmishdan kelajakka tomon rivojlanib borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotga xalq ommasining roli, g'ayrati, uyushqoqligi ortib va chuqurlashib, inson amaliy faoliyati jadallashib boradi. Bu umuminsoniyatga xos qonuniyatdir. Jamiyatimiz tarixiy maqsadlarining ko'lami keng. Inson shaxsi barkamol bo'lsa, faol mexnat qilsa, ijtimoiy-siyosiy ishlarda faol ishtirok etsa, mamlakatimiz shu qadar tez rivojlanadi va mustahkamlanadi. Insonning ijodi, tashabbusi jamiyatimizning kuchi va hayotiyligining eng muhim manbaidir" deb ta'rif bergan.

Darhaqiqat oldimizga rivojlangan demokratik huquqiy jamiyat qurishni maqsad qilgan ekanmiz eng avval ushbu jamiyatni quruvchi fuqaroni yani har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalab yetishtirishimiz zarur

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu ishga jadal kirishildi. Ayniqsa ta'limni isloh qilish 1997-yil avgust oyida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar hamda ularning bajarilishini muvoffaqiyat bilan olib borish jamiyatimizning shu 24- yil davomida jadal rivojlanishini ta'minladi. Yurtboshimiz I.A.Karimov "Men Abdullo Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo momot, yo jannat- yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lim- tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim- tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oiliy maqsad- ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi" degan edilar.

Milliy qadriyatlarimiz bo'lmish tarixiy shaxslar, buyuk allomalarimizning qadriyatlari tiklanishini mustaqilligimizning dastlabki yillarida ro'y bergan iqtisodiy va siyosiy bo'xtonlar sharoitida amalga oshirganimiz chinakam qahramonlik bo'lib, buning uchun xalqimiz yurtboshimizdan minnatdordir. Birinchi Yurtboshimizning "Tarixni bilmay turib kelajakni yaratib

bo'lmaydi" - degan so'zlari hozirgi va kelgusi avlod uchun mustaqilligimizni mustahkamlash, uni har-xil balo- qazolardan asrash, ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy sohalarda uning obro'sini yanada yuqori ko'tarish jahon hamjamiyatida nufuzini oshirish yo'lida qilinadigan sa'y harakatlari uchun dasturamal bo'lib qolishiga ishonamiz. Bularning barchasi kelgusi avlod tarbyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ma'naviy jihatdan kamolga yetishida, har xil yot g'oyalar va mafkurlarga aldanmasdan yanada maqsad yo'lida brlashishiga, sobitqadam bo'lishiga olib keladi deb umid qilamiz.

Xalqimizda "Bolani ko'cha buzadi"- degan naql bor. To'g'rirog'i bolani ko'cha emas, balki e'tiborsizlik, qarovsizlik buzadi. Biz yuqorida nomlarini keltirgan va muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlarga, ularni o'qish, ularni mushohoda qilishga farzandlarimizga o'rgata borsak, ularda milliy axloq aqidalarimizga bo'lgan mustahkam e'tiqodni shakllantira olsak, o'ylaymanki ularni har qanday tashqi ta'sir va axloqimizga yot bo'lgan qarashlardan himoya qilgan bo'lamiz. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak agarda biz yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitmoqchi bo'lsak, ularning tarbiyasida yuksak natijalarga erishmoqchi bo'lsak yuqorida aytilgan fikrlarga befarq bo'lmasligimiz kerak va bu sohada keskin o'zgarishlar qilishimiz zarur.

Shundan kelib chiqadiki, yosh avlod bizning kelajagimiz, ularga berilgan to'g'ri tarbiya yuksak milliy axloq va e'tiqod kelajagimiz xayrli bo'lishini, millatimiz obro'sini va nufuzini saqlab qolishimizni va uni yanada yuqori cho'qqilarga ko'tarishimizni ta'minlaydi. Bu ishda bizga eng yaxshi qo'llanma qanday janr va yo'nalishda bo'lmasin o'zida axloqiy g'oyalar, ibratli jummalarni aks ettirgan adabiyotlar bo'lib qoladi. Radio va televideniya, teatr, kino san'ati, musiqa va tasviriy san'at bu ishda bizga ko'mak beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" T.Sharq nashr 1998-yil.
3. S.Dolimov "Qobusnoma" Tosh.O'qituvchi nash,2006-yil.
4. J.To'lanov "Qadryatlar falsafasi" Tosh.O'zbekiston nash.1998-yil.
5. Hasanova, N. K. (2021). Possibilities of music education and upbringing in the formation of personal maturity. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 08 (100), <http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-100-79> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.08.100.79>
- O'zbekiston Davlat Milliy Universiteti "Ma'naviy salohiyati" Tosh.2009-yil.
6. Raxmatulloh Nosir "Olam yizin obod qil" Tosh. Yangi asr avlodi nash.2004-yil
- 7 Khasanova,Navbahor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students."MentalEnlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article
8. hasanova, navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/5579](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579)
9. O'zbekiston Davlat Milliy Universiteti "Ma'naviy salohiyati" Tosh.2009-yil.
10. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495. <Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558> dan olingan

## МУНДАРИЖА

Эрназарова Г.О. - Формирование креативного мышления будущих педагогов .....	6
O.X.Turakulov, S.K.Mamanov - Bo'lajak matematik mutaxassislarni tayyorlashda fanlarni kasbga yo'naltirib o'qitish usullari.....	8
Hamidov J.A. - Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.....	10
M.A.Tilakova, A.A.Tilakov - Креатив қобилят ва уни такомиллаштириш механизмлари тушунчаларининг илмий-педагогик талқини.....	14
N.M.Kenjaboyeva - Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatini shakllantirish uchun ularning reproduktiv madaniyatni rivojlantirishda pedagogning o'rni .....	16
Sh.Abdusalilova, U.Amanbaeva - Oliy ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan malaka talablarini o'zlashtirishning masofaviy ta'lim metodi .....	18
G.O.Эрназарова, Э.Д.Хазиева - Методики развития креативности будущих педагогов.....	21
G.O.Эрназарова, Н.Қ. Ахмедова - Ўқитувчининг креативлигини ривожлантириш. Креатив педагог ким? .....	23
Ш.М.Ҳайдаров, Т.Қ.Қодиров - Матн таҳлилида лингвопоэтик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари .....	25
O.U.Авлаев - Бошланғич синф ўқувчиларига хорижий тил ўргатиш методлари.....	27
X.S.Akratova - Inklyuziv ta'limni samarali joriy etishda aqli zaif o'quvchilarida mehnat ko'nikmalarini shakllan tirishda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi.....	31
У.Х.Мингбоев, А.М.Хўжаев - Информатика дарсларида ўқувчиларнинг таянч компетенцияларини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари .....	33
Шарипова Г.С. - Талаба қизларда амалий санъат орқали тадбиркорлик қобилятини ривожлантириш.....	34
Ш.М.Ҳайдаров - Ижодий қобилятни шакллантириш методикаси.....	39
P.Q.Xolmatov, M.O'rinboyev - Texnologiya darslarida o'qituvchilarning kreativ yondashuvi ....	41
Нишанов Ш., Холматов Ф. - Компетентность в обучении рки.....	43
A.Y. O'tayev, M.U.Muradullayeva - Pedagogik kasbiga bo'lgan layoqat.....	46
Сиддиков З.Х., Сиддиков Х.З. Сиддиков М.З. - Классификация и принципы построения математических моделей.....	48
M.T.Rabbimov, M.A.Tilakova, Sh.D.Abdurashidov - Yuqori sinf o'quvchilari bilan amalga oshiriladigan intellektual-ijodiy ishlar tizimi va sifatiga quyiladigan talablar .....	54
M. M. Jabborov - Kimyo ta'limida pedagogik texnologiyalarning samarasi .....	56
M.Муминова, Н.Нарзуллаева - Ёшларни бадиий-эстетик ривожланишида халқ мусиқасининг ўрни .....	58
N.Hasanova, N. Tojiqulova - Adabiyot- barkamol avlod tarbiyasining muhim omili.....	60
G.C.Шарипова, С.Д.Нишанова - Талаба-қизларнинг тадбиркорлик компетенцияларини такомиллаштиришнинг психологик-педагогик асослари.....	63
З.М.Қабирова, И.В.Қайнарлова - Ўқитишга креатив ёндашув.....	66
Z.A.Abduvohidova, M.A.Xudoyberdiyeva - Boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy madaniyatni shakllantirish .....	68
O.E.Xolmirzayev, M.Dostonova - O'zbek xalq cholg'u san'ati tarixi.....	69